



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
INNOVATSION  
RIVOJLANISH VAZIRLIGI**

# **BOSHLANG'ICH TA'LIMGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA RIVOJLANISH OMILLARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI**

## **MATERIALLARI**



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ФАКУЛЬТЕТИ  
БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ**

**БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМГА РАҚАМЛИ  
ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАТБИҚ ЭТИШНИНГ  
ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА  
РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ**

**ХАЛҚАРО МИҚЁСИДАГИ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН**

**МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2021 йил, 1 -2 апрель**

**Бухоро - 2021**

### **Илмий анжуманнинг дастурий кўмитаси**

- О. Х.Хамидов – Бухоро давлат университети ректори, иқтисод фанлари доктори, профессор, раис.
- О.С.Қаҳҳоров – илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис муовини.
- Ў.У. Рашидов – молия ва иқтисод ишлари бўйича проректор, аъзо.
- Қ.Р.Тўхсонов – мактабгача ва бошланғич таълим факультети декани, аъзо.
- Ю.Ю.Азимов – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари, аъзо.
- Н.О. Сафарова – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ёшлар билан ишлаш бўйича декан ўринбосари, аъзо.
- А.Р.Ҳамроев – бошланғич таълим методикаси кафедраси мудири, аъзо.
- Ю.А. Пўлотова – бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, котиб.

### **Илмий анжуманнинг ташкилий кўмитаси**

- О.С.Қаҳҳоров – Бухоро давлат университети илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис муовини.
- Қ.Р.Тўхсонов – мактабгача ва бошланғич таълим факультети декани, раис муовини.
- Г.Т. Зарипов – ИТ, И ва ИПКТБ бўлими бошлиғи, аъзо.
- Ю.Ю.Азимов – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари, аъзо.
- Н.О. Сафарова – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ёшлар билан ишлаш бўйича декан ўринбосари, аъзо.
- А.Р.Ҳамроев – бошланғич таълим методикаси кафедраси мудири, аъзо.
- Ф.М.Қосимов – бошланғич таълим методикаси кафедраси доценти, аъзо.
- Ғ.М.Сайфуллаев – бошланғич таълим методикаси кафедраси доценти, аъзо.
- Н.Б.Адилова – бошланғич таълим методикаси кафедраси катта ўқитувчиси, аъзо.
- Р.А.Қўлдошев – бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, аъзо.
- Р.Х.Жумаев – бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, аъзо.

Тўшам Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 2 мартдаги 78-ф-сонли фармойиши билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасида 2021 йилда халқаро ва республика миқёсида ўтказиладиган илмий ва илмий-техник тадбирлар режасида белгиланган тадбирларнинг бажарилиши мақсадида 2021 йил 1 апрель куни Бухоро давлат университети Бошланғич таълим методикаси кафедрасида **“Бошланғич таълимга рақамли технологияларни татбиқ этишнинг замонавий тенденциялари ва ривожланиш омиллари”** мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари асосида тузилди.

### **Масъул муҳаррир:**

А.Р.Ҳамроев, педагогика фанлари доктори, доцент

### **Такризчилар:**

Б.Р.Адилов, педагогика фанлари доктори, профессор

Ю.Ю.Азимов, филология фанлари номзоди, доцент

**Keys words:** *integration, primary education, mother tongue, interdependence, dependency, skill, lesson, consciousness.*

Boshlang'ich ta'lim o'quv jarayonida foydalanilayotgan usul, uslub va shakllarning turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari natijasi o'laroq yangi o'quv rejaları va dasturlarga o'tish mobaynida jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi aloqalarni uyg'unlashtirish, atrof-muhitga jiddiy munosabatni o'rnatish va shakllantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsning tevarak atrofdagi voqea va hodisalarga nisbatan jiddiy munosabatlarining poydevori boshlang'ich sinflarda qo'yiladi.

Ona tili fanini quyidagi fanlar bilan bog'lash maqsadga muvofiq: o'qish, tabiat, rasm, ingliz tili, mehnat, odobnoma, matematika, musiqa. Fanlararo aloqadorlik o'rnatilganda o'quvchi dars mazmunini chuqur anglaydi va hayotni yaxlit bir tizim sifatida tasavvur qiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bu fanlarni integratsiyalashda o'tiladigan mavzu ham muhim ahamiyatga ega, ya'ni har qanday mavzuni ham integratsiyalash imkoniyati yo'q.

Fanlarni o'zaro integratsiyalashdan asosiy maqsad o'quvchilarga berilayotgan bilimlar takrorlanishining oldini olish, bir xillikka barham berish va vaqtni tejab qolishdir. Shunday ekan yuqorida ko'rib o'tilganidek integratsiyalash orqali biz juda ko'p vaqtni tejagan holda o'quvchilarga har tomonlama puxta bilim berishimiz va darslarni qiziqarli tashkil etishimiz mumkin bo'ladi. Integratsiyalashgan darslarni tashkil etish bir tomondan dastur talablarini o'zlashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan o'quvchida fanlararo bog'liqlik haqida tasavvur uyg'otadi.

Ona tili darslari elementlarini tasviriy san'at va mehnat darslari bilan integratsiyalash masalasiga metodistlar, pedagoglar, psixologlar alohida e'tibor qaratmoqdalar. Bu fanlar integratsiyasi o'quvchilarning aqliy qobiliyatini rivojlanishida, xotirasini yaxshilashda, nutqining takomillashuvida, boyishida alohida ahamiyat kasb etadi. Ona tili va tasviriy san'at darslari integratsiyasida o'quvchilar asar mualliflarining tarjimai holi, asarlarni yaratish tarixi bilan tanishish bilan birga, asarni muhokama va tahlil qilish mobaynida ularning diqqati asar mohiyatiga qaratiladi.

Asar bilan tanishish barobarida bolalar rasmni hayotda ko'rganlari bilan taqqoslaydilar, bu esa ularda mantiqiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Ona tili darslarida rassomlarning asarlaridan foydalanish o'quvchilarda ko'tarinki kayfiyatni yuzaga keltiradi, nutqining boyishiga yordam beradi, mustaqil ravishda ijodiy yondashuviga imkoniyat beradi. Rasm darslarida biror bir asar muallifi bo'lgan rassomning tarjimai holi o'quvchilar tomonidan gapirib berishlari, ular yaratgan asarlarni yaratish tarixi bilan tanishishlari barobarida o'quvchilar og'zaki nutqi ravonlashadi, takomillashadi.

Shuningdek, ona tili darslarida yozma topshiriqlarni bajarishdan avval o'qituvchi o'quvchilarga quyidagi mazmundagi vazifani bajarishni topshirishi mumkin: daftaringizga uydan chiqib, maktabga kelguningizga bo'lgan yo'lni chizing, chizish vaqtida har bir burilish, yo'lning qayirilish o'rinlarini aniq ko'rsatishni taklif qilishi mumkin. Bu xildagi mashq, eng avvalo, o'quvchilarda xotirani mustahkamlaydi, qiziqishini orttiradi, o'quvchilarni bajarishi kerak bo'lgan vazifaga tayyorlaydi va, eng asosiysi, ular barmoqlarini yozuvga tayyorlaydi. Bunday xarakterdagi topshiriqlarning turli shakllarini o'ylab ko'rish va joriy etish mumkin. Bu, asosan, o'qituvchining ijodkorligiga bog'liq. Daftarga o'ylab chizilgan chiziqlar o'quvchini harflarni, so'zlarni chiroyli yozishga tayyorlaydi. Bunday daqiqalardan yozuv darslarida ham foydalanish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quvchilar bilim darajasini oshirishda ta'lim mazmunini integratsiyalash yuqori natijalarga olib keladi. Unda nafaqat fanlarni o'zaro bog'lash orqali, balki o'zaro uyg'unlashishi mumkin bo'lgan va bolaga ijobiy ta'sir etadigan obyektlar orqali ham bolalarni har tomonlama rivojlantirishni ta'minlashga ko'maklashishi mumkin. Buning uchun ta'limni zamonaviy talqin asosida tashkil etish zarurdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. O'zbek tilining imlo lug'ati. – T.: "O'qituvchi", 1995. – 288 b.
2. Mavlonova R.A., Raxmonqulova N. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi - T.: "Ilm-Ziyo", 2009. – 192 b.
3. Mavlonova R.A., Raxmonqulova N. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi innovatsiyasi va integratsiyasi. - T.: "G'ofur G'ulom", 2013.

## PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA –TA'LIM-TARBIYA JARAYONINING YAXLIT TIZIMI SIFATIDA

Sh. N. Qurbonova, BuxDU o'qituvchisi  
N. Razzoqova, BuxDU talabasi

**Annotasiya.** Maqolada pedagogik texnologiya — ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarini qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasi ekanligi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** texnologiya, ta'lim texnologiyasi, pedagogik texnologiya, pedagogik texnologiya xususiyatlari, ijodiy tafakkur, tarbiya metodlari.

**Аннотация:** В статье утверждается, что педагогическая технология представляет собой совокупность систематических методов, позволяющих использовать человеческий потенциал и технические ресурсы в процессе обучения и обучения, оптимизировать формы обучения, определять их взаимодействие.

**Ключевые слова:** технология, образовательная технология, педагогическая технология, особенности педагогической технологии, творческое

**Abstract.** The article argues that pedagogical technology is a set of systematic methods that make it possible to use human potential and technical resources in the process of teaching and learning, to optimize the forms of education, to determine their interaction.

**Key words:** technology, educational technology, pedagogical technology, features of pedagogical technology, creative thinking, teaching methods.

O'zbekiston ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri "shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi"dir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta'limning yangi modeli yaratildi. Bosh g'oya ham tabiat va inson uzviyligini anglab yetadigan, avtoritar va soxta tafakkurlash usulidan voz kechgan, sabr-bardoshli, qanoatli, o'zgalar fikrini hurmatlaydigan, milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar kabi shaxs sifatlarini shakllantirishni ko'zda tutgan insonparvarlik hisoblanadi. Yangi pedagogik texnologiyaning mazmun-mohiyati, muammo va yechimlarini DTS asosida o'qitiladigan fanlarni o'rganish jarayoniga qo'llashga doir usul va uslublarini ishlab chiqish va joriy etish davr talabi. Zamonaviy pedagogik texnologiya pedagogik loyihasi sifatida fan asoslari bo'yicha o'quvchi talabalarining bilish faoliyatini maqsadga muvofiq holda tashkil etish va amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Pedagogik texnologiya eng murakkab jarayon - insonning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanishda asosiy vosita bo'lganligi tufayli ham uning asoslari ham shaxs murakkabligi kabi xilma-xildir. Ular orasida tarixiy, nazariy, ijtimoiy, falsafiy, metodologik, pedagogik, didaktik, fiziologik, gigiyenik, iqtisodiy, mafkuraviy, huquqiy-me'yoriy, amaliy va boshqalar farq qilinadi. Bunday dinamik jarayon ta'lim tizimida sodir bo'ladigan o'zgarishlar bilan garmonik tarzda kechadi.

"Texnologiya" yunoncha so'zdan kelib chiqqan bo'lib "techne" - mahorat, san'at, malaka va "logos" - so'z, ta'limot ma'nolarini anglatadi. Texnologiyani ilm sifatidagi vazifasi, moddiy manba va vaqtlar kam sarflashni talab etuvchi samarali va tejamkor ishlab chiqarish jarayonlarini aniqlash va amaliyotda ulardan foydalanishni aniqlash maqsadidagi qonuniyatlarni topish hisoblanadi. Ta'limni texnologiyalashtirish bu o'qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta'lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo'llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo'nalishdir.

Ta'lim texnologiyasi:

- bu mavjud sharoit va o'rnatilgan vaqtda belgilangan ta'limiy maqsad va ko'zlanayotgan natijalarga kafolatli erishishni vositali ta'minlovchi, muloqot, axborot va boshqaruvning eng qulay yo'l va o'qitish vositalarining tartibli yig'indisi (ta'lim berish texnologiyasining jarayon-bayonli jihati);

- bu mavjud yuzaga kelgan ta'limiy jarayon subyektlarining hamkoriy harakatlari, haqiqiy jarayon (ta'lim berish texnologiyasining amaliy-jarayon jihati) tartibi. "Pedagogik texnologiya" - pedagogik hodisa va ta'limni texnologiyalashtirish sohasidagi jarayonda qo'llaniladigan tushuncha.

Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining hamma sohalarini qamrab oluvchi yaxlit tizim bo'lsa, o'qitish texnologiyasi ma'lum fanlarni hozirgi didaktik talablar asosida o'qitishning yaxlit tizimini tashkil qiladi. Ularning o'zaro bog'liqligi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ishlab chiqilgan davlat ta'lim standartlarida o'z ifodasini topgan.

1. Yangi pedagogik texnologiyaning metodik asoslari davlat ta'lim standartlari bo'lib hisoblanadi. Davlat ta'lim standartlarida talaba (o'quvchi) egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar mezoni belgilab berilgan. Bilim, ko'nikma va malakalar DTS talablaridan past bo'lmasligi kerak.

Необходимо ограничить оставшуюся в наследство от старой системы и все еще продолжающуюся практику изучения прокуратурой судебных решений. Отныне прокурор сможет затребовать решение суда только при поступлении жалобы по делу.

Надо пересмотреть полномочия председателей судов по оценке деятельности судей и возбуждению дисциплинарного дела в их отношении.

Должностным лицам государственных органов следует твердо уяснить себе: вопрос обеспечения независимости судов и впредь будет находиться под строгим личным контролем Президента.

Каждый человек, переступивший порог суда, должен быть полностью уверен, что в Узбекистане неукоснительно соблюдаются принципы законности и справедливости. Как говорил известный немецкий философ Эммануэль Кант, “когда справедливость исчезает, не остается ничего, что могло бы придать ценность жизни”. Мы никогда не должны забывать эту истину.

В Узбекистане судьи призваны быть непримиримыми защитниками закона, прочной опорой справедливости.

Верховному суду, Высшему судейскому совету, Министерству юстиции поручается в трехмесячный срок внести проект закона, предусматривающий внедрение этих предложений в практику.

Во-вторых, основные законы и кодексы, касающиеся судебно-правовой сферы, были приняты около 20-25 лет назад и перестали отвечать современным требованиям.

В связи с этим парламенту было бы целесообразно принять в ближайшие годы новые Гражданский, Уголовный, Уголовно-процессуальный, Уголовно-исполнительный кодексы и Кодекс об административной ответственности.

При этом особое внимание следует уделить внедрению в следственную и судебную практику передовых стандартов в области прав человека.

При совершенствовании законодательства нас больше всего должен заботить не сам факт принятия новых законов, а то, какую пользу новые законы принесут людям, как облегчат их жизнь.

В-третьих, необходимо вывести на новый уровень реформы в сфере раннего предупреждения правонарушений.

Мы осуществляем серьезные меры по совершенствованию деятельности органов внутренних дел. Но пока еще они не стали структурой, на самом деле пользующейся уважением народа.

В их системе отсутствуют конкретные критерии деятельности по охране общественного порядка, борьбе с преступностью, оказанию государственных услуг.

В этой связи считаю важным еще раз подчеркнуть, что необходимо продолжить реформы и превратить органы внутренних дел в настоящих защитников граждан.

Новому составу парламента, в частности, Сенату, предстоит в течение следующих пяти лет создать все необходимые для этого организационно-правовые основы и принять практические меры.

Необходимо разработать систему повышения квалификации и целевой подготовки руководителей органов внутренних дел всех уровней.

В-четвертых, к сожалению, развитию страны препятствует коррупция в разных проявлениях.

Если мы не искореним это порочное явление, нам не удастся создать реально благоприятный деловой и инвестиционный климат, ни одна сфера жизни нашего общества не будет развиваться.

Следует открыто признать – предприниматели все еще сталкиваются с коррупцией в таких направлениях, как предоставление земельных участков, кадастровые, таможенные, банковские услуги, лицензирование, государственные закупки. Об этом свидетельствуют и многочисленные обращения на имя Президента, сообщения в прессе и социальных сетях.

Пока в борьбу с коррупцией не будут вовлечены все слои населения, лучшие специалисты, пока все наше общество не будет, образно говоря, привито «вакциной честности», мы не сможем достичь поставленных целей.

От устранения последствий коррупции мы должны перейти к ее раннему предупреждению.

Как вы смотрите на предложение создать в целях организации системного исполнения данных задач отдельный антикоррупционный орган, подотчетный парламенту и Президенту?

В связи с этим Администрации Президента совместно с комитетами палат Олий Мажлиса поручается в трехмесячный срок разработать соответствующий указ Президента.

В-пятых, сама жизнь требует от нас сделать еще один важный шаг в обеспечении прав человека, совершенствовании законодательства о гражданстве.

В частности, настало время принять организационно-правовые меры по решению в соответствии с законом этой проблемы наших соотечественников, долгие годы проживающих в стране, но так и не получивших статус граждан Республики Узбекистан.

В частности, лица, прибывшие в республику до 1995 года и с тех пор проживающие в стране, автоматически должны стать гражданами Узбекистана. Таким образом будет решена жизненно важная проблема почти 50 тысяч соотечественников.

Кабинету Министров поручается рассмотреть этот вопрос совместно с Законодательной палатой Олий Мажлиса и представить соответствующий законопроект до 1 мая текущего года.”<sup>32</sup>

Статья 27 Конституции Республики Узбекистан гласит, что «Каждый имеет право на защиту от посягательств на его честь и достоинство, вмешательства в его частную жизнь, на неприкосновенность его жилища».<sup>33</sup>

**КЛЕВЕТА - распро странение заведомо ложных сведений, порочащих честь и достоинство человека или подрывающих его деловую репутацию.**

Основанием привлечения к уголовной ответственности лица за клевету, является повторное совершение им деяния подпадающее под признаки ст. 40 КоАО Республики Узбекистан,<sup>34</sup> являющееся административным правонарушением.

Уголовная ответственность за клевету предусмотрено ст. 139 УК Республики Узбекистан.<sup>35</sup> Под распространением сведений понимается опубликование их в печати, трансляция по радио и телевидению, распространение в сети Интернет, изложение в служебных характеристиках, публичных выступлениях, заявлениях, адресованных должностным лицам, или сообщение в любой, в том числе устной, форме хотя бы одному лицу.

Стоит более подробно рассмотреть каждое понятие, составляющее термин "клевета".  
Комментарии к статье "Клевета":

- Распространение - означает, что информация была сообщена другим лицам. Причем, сюда входят абсолютно любые способы - и письменные, и аудио-, и видеоматериалы. А также оклеветать человека можно с использованием СМИ (радио, газеты, телевидение), Интернета или при личном общении. Даже контакт всего двух людей, в результате которого были сообщены ложные сведения, может стать объектом судебного разбирательства;

- Заведомость (заведомо ложные) - оклеветавший точно заранее знал, что сообщаемые им сведения не соответствуют действительности;

- Ложность - не соответствие истине;

- Порочащие достоинство - принижающие личность человека в глазах общественности. Например, сюда относятся сведения, согласно которым человек совершил незаконное или аморальное действие, участвовал в подобном или был свидетелем.<sup>36</sup>

#### **Наказание за клевету**

Существует три вида санкций. Стоит отдельно описать санкцию за клевету каждого типа:

Клевета, то есть распространение заведомо ложных, позорящих другое лицо измышлений, совершенная после применения административного взыскания за такие же действия, — наказывается штрафом до двухсот базовых расчетных величин или обязательными общественными работами до трехсот часов либо исправительными работами до двух лет.

Клевета в печатном или иным способом размноженном тексте либо в средствах массовой информации —

Наказывается штрафом от двухсот до четырехсот базовых расчетных величин или обязательными общественными работами от трехсот до трехсот шестидесяти часов либо исправительными работами от двух до трех лет или ограничением свободы до одного года или лишением свободы до одного года.

Клевета:

<sup>32</sup> См.: Послание Президента Шавката Мирзиёева Парламенту страны. 2020 г. 14 января

<sup>33</sup> См.: Конституция Республики Узбекистан

<sup>34</sup> См.: Кодекс об административной ответственности Республики Узбекистан.

<sup>35</sup> См.: Уголовный Кодекс Республики Узбекистан.

<sup>36</sup> См.: Комментарий к Особенной части Уголовного Кодекса Республики Узбекистан.

- А) соединенная с обвинением в совершении тяжкого или особо тяжкого преступления;  
Б) повлекшая за собой тяжкие последствия;  
В) совершенная опасным рецидивистом;  
Г) из корыстных или иных низменных побуждений —  
Наказывается ограничением свободы от одного года до трех лет либо лишением свободы до трех лет.

## BOLA PSIXOLOGIYASI VA UNING NUTQIDAGI NUQSONLAR

Qo'shshayeva A. A.Tosh 536-DMTT logopedi

Faxriddinova M.Q.Nav 2- DMTT logopedi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bola nutqining normal holati, bola nutqiga oiladagi muhitning bog'liqlig'i, bola nutqiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, bola nutqini rivojlantirishda qanday mashg'ulotlardan foydalanish yo'llari haqida, Komarovskiyning tavsiyalari asosida tayyorlangan.

**Kalit so'zlar:** Bola nutqi, oiladagi muhit, Komarovskiy, perinatal davr, notal davr, postnatal davr, Artikulyatsion, nafas, logomassaj, didaktik o'yinlar.

**Аннотация.** В основе данной статьи лежат рекомендации Комаровского о нормальном состоянии речи ребенка, отношении речи ребенка к семейной среде, факторах, влияющих на речь ребенка, и способах использования упражнений в развитии речи ребенка.

**Ключевые слова:** детская речь, семейное окружение, Комаровский, перинатальный период, нотальный период, послеродовой период, Артикуляция, дыхание, логомассаж, дидактические игры.

**Annotatsion.** This article is based on Komarovsky's recommendations on the normal state of the child's speech, the relationship of the child's speech to the family environment, the factors affecting the child's speech, and how to use exercises in the development of the child's speech.

**Key words:** children's speech, family environment, Komarovsky, perinatal period, notal period, postpartum period, Articulation, breathing, logomassage, didactic games.

Bolaning nutqi kattalar nutqi asosida rivojlanib boradi. Nutqning to'g'ri shakllanishi atrofdagilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to'g'ri nutq muhiti va ta'lim-tarbiyaga bog'liq. Nutq tug'ma qobiliyat emas, balki hayot davomida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan parallel ravishda shakllanib boradi.

Nutq buzilishlarini o'rganish, tushunish uchun bola nutqining normal rivojlanish yo'lini, bu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini, nutqning muvaffaqiyatli shakllanishida katta rol o'ynovchi sharoitni bilish lozim. Bundan tashqari bola nutqining rivojlanish davrlarini aniq bilish zarur. Bu esa nutqning rivojlanishi jarayonidagi u yoki bu kamchiliklarni o'z vaqtida bilish va aniqlash uchun kerak bo'ladi. Bolaning nutqi kechikayotganini yoki tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilayotganini, duduqlanayotganini sezganingiz, shu zahoti mutaxassislariga murojaat qilishingiz lozim. Qancha erta murojaat qilsangiz, nutq nuqsonlari shuncha samarali bartaraf etiladi. Har kuni farzandingizga kamida 10-15 daqiqa kitob o'qib bering. Ushbu mashg'ulot farzandingizning so'zlarni to'g'ri anglash va talaffuz etishida samarali usul hisoblanadi. Farzandingizning nutqidagi nuqsonlarni to'g'rilashda aslo jahlg'a berilmang. Chunki bu jarayon ko'p vaqt talab qiladigan jarayondir. Noo'rin tanbeh yoki ortiqcha talab farzandingizning o'z nuqsonlarini bartaraf etishga umuman yordam bermaydi. Shuning uchun u bilan kattalarga muomala qilgandek muomalada bo'ling.

Farzandingizning erkanib gapirishiga yo'l qo'ymang, bu nutqini noto'g'ri rivojlanishiga olib keladi. O'zingiz ham yoshi katta bo'lsa ham chuchuk tilda erkalamang. Bu holatlar ham nutqning noto'g'ri rivojlanishiga olib keladi. Qiziqarli qo'shiqlarni birgalikda kuylang. Televizor, planshet, telefonda o'tkazadigan vaqtingizni qisqartiring. Ota-onalar bolalar uchun namuna, shunday ekan nutqingiz to'g'ri va ravon, tushunarli bo'lishiga e'tibor qarating. Farzandingiz bergan savollarini barchasiga javob berishga harakat qiling. Ular bilan ko'proq muloqotda bo'ling. Farzandingiz tushunmay so'ragan narsasini iloji boricha sodda tilda tushuntirishga harakat qiling. Agar nutq buzilishi bo'lgan bola tegishli korreksion-logopedik ish olib borilmasa, uning intellektual rivojlanish sur'ati ham sekinlashishi mumkin. Nutqidagi kamchiliklari tufayli bola atrofdagilar bilan muloqatga kirishishga qiynaladi, natijada uning tasavvuri ancha cheklanadi, tafakkurining rivojlanish sur'ati ham sekinlashadi. Nutq yordamida bola nafaqat yangi axborot oladi, balki uni yangicha o'zlashtirish imkoniyatiga ham ega bo'ladi. 2-3 yoshga to'lgan bolalar juda qiziquvchan bo'lganligi uchun ular tomonidan berilgan har bir savolga erinmasdan, aniq javob berishga harakat qilish kerak. Aniq javob berish bilan birga so'zlarni sodda va ravon tarzda bayon etishingiz lozim. Ko'pincha bu davrda kichkintoylar o'zlarini boshqara olmaydilar.



Kattalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri “Jim tur!”, “Jim o‘tir!” yoki “To‘polon qilma!” buyruq ohangidagi gaplari va nasihatlari ularga ta‘sir qilmaydi. Bu esa, ularning ruhiyatiga, nutqining, tafakkurining rivojlanishiga salbiy ta‘sir etadi. Bir necha yillardan so‘ng bunday onalar bolam hech narsa bilan qiziqmaydi yoki nutqida kamchiligi bor kabi shikoyatlari bilan psixolog va logopedlarga murojaat qiladilar, lekin buning asosiy sababi bilan qiziqmaydilar va sababchisi o‘zlari ekanliklarini umuman hayollariga ham keltirishmaydilar. Vaholangki, kichkintoylar bilan yo‘lda keta turib ham ularni har tomonlama rivojlantirish mumkin. Logoped bilan hamkorlikda ish oli borsangiz farzandingiz nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish osonroq kechadi. Zero kelajagimiz poydevorlari bolalar ta‘lim va tarbiyasiga befarq bo‘lmaylik. Mutaxassislar nutqning o‘z vaqtida rivojlanmasligi yoki keskin sekinlashuvining juda ko‘p ekanligini aniqlashgan. Ikki yoshga to‘lgan bolaning tili chiqishi kerak. O‘zining uchinchi tug‘ilgan kuniga qarab 300 ta so‘zni bilishi, tushunishi, gapira olishi lozim. Bolaning tili vaqtida va ravon chiqishi uchun ota-ona yordam berishi mumkin ekan, deb takidlaydi. Mashhur rossiyalik pediater Komarovskiy bola nutqini ravon bo‘lishi uchun quyidagi fikrlarni bildirgan:

1. Bola bilan homiladorligingizdan boshlab suhbatlashishni boshlang. Homiladorlikning 3 trimestrida bola tovushlarga juda ta‘sirchan bo‘ladi. Aynan bu davrdan boshlab ona yoki ota o‘z farzandi bilan muloyim gaplashishni, klassik musiqalarni qo‘yib berishni odat qilish kerak.

2. Yangi tug‘ilgan chaqaloq bilan doimo suhbatlashib yuring. Chaqaloqligidan ravon nutqni eshitgan bolaning tili chiqishi osonroq bo‘ladi.

3. Bolaning ko‘zlariga qarab gapiring. Ota-ona gapirayotganda bola uning lab qimirlashini kuzatadi, shu yo‘l bilan uning tili chiqishi osonlashadi.

4. Bolaga ko‘p savol bering. Bola javob bera olmagan taqdirda ham, unga savol berishga odatlantiring. Savolingizga javob berish niyatida uning aqliy va nutqiy rivojlanishi kuchayadi. Telefon va kompyuter o‘yinlari bolaning tili chiqishini keskin sekinlashtiradi.

5. Bolaga ko‘p ertak o‘qib bering. Kitobdagi yangi so‘z va iboralar bolaning tili chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi.

6. Bolangiz bilan birga yoki bolangiz uchun qo‘shiq ayting. Musiqa va qo‘shiq nutq apparatini rivojlantirib bolaning nutq boyligini oshiradi.

7. Bola bilan doimiy ravishda muloqotda bo‘ling. Ovqat qilish davomida ham bolani sabzavotlarning rangi, sonini aytishga undasa bo‘ladi. Ko‘chadagi va atrofdagi buyumlarni va manzaralarni bolangiz bilan birgalikda hamsuhbat bo‘lib tahlil qiling.

8. Bola tilida suhbatlashmang. Bola olti oydan o‘tgach u bilan og‘izni cho‘chchaytirib “Shiringina” gapirishning foydasi yo‘q. Bolaning tili chiqishida bu qiyinchilik tug‘diradi.

Mutaxassislar nutqning o‘z vaqtida rivojlanmasligi yoki keskin sekinlashuvining sabablari juda ko‘p ekanligini aniqlashgan. Ular quyidagilar:

1. Homiladorlik davri (perinatal davri)
2. Tug‘ruq davri (notal davri)
3. Tug‘ruqdan keyingi davr (postnatal davr)

1. **Homiladorlik davrida** turli xil kasalliklarni boshdan kechirish, turli xil infeksiyalar, intoksikatsiya, homila toksikozi, gepoksiya yoki kislorod yo‘qotish, qon bosimining oshishi, homilador ayol va homila qon guruhining mos kelmasligi. Homiladorlik paytida sigaret, alkohol va giyohvandlik moddalarini iste‘mol qilish o‘z-o‘zini davolash, yani ayrim dori darmonlarni qabul qilish. Homiladorning homila uchun xavfli bo‘lgan joylarda ishlashi (radiatsiya).

2. **Tug‘ruq davrda** akusherlik patologiyalari, ya‘ni tos suyagining kichkinaligi, homilaning kindik o‘qiga o‘ralishi. Tug‘ruqdan oldin suv ketishi, homilaning noto‘g‘ri joylashishi, tug‘ruq jarayonida bosh miyaning jarohatlanishi, tug‘ruq jarayonida asfiksiya natijasida bolaning ko‘karib tug‘ilishi.

3. **Tug‘ruqdan keyingi** davr 1-yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan davrda bosh miyada turli xil jarohatlarni olish, bosh miyadagi infeksiyalar, turli hil yuqumli kasalliklar sababli yuzaga keladi.

Nutq nuqsonlari quyidagi mezonlar asosida tekshiriladi:

1. Gugulash davri (3 oylikdan)
2. 1 yosh 6 oylik 10-15 ta so‘z
3. 2 yoshda 300 ta so‘z
4. 3 yoshda 1000 ta so‘z
4. 6-7 yoshga kelib 4000 dan 5000 gacha so‘z lug‘at boyligi bo‘lishi lozim.

**Nutq nuqsonlarini bartaraf etish yo‘llari:**

1. Artikulyatsion, nafas, mayda qo‘l muskullarini rivojlantiruvchi mashqlar.
2. Logomassaj (nuqtali, bo‘shashtiruvchi, tetiklashtiruvchi massaj).
3. Nutqni rivojlantiruvchi didaktik o‘yinlar.

Bu mashg'ulotlar kelajagimiz poydevorlari bo'lmish bolalar ta'lim va tarbiyasiga, asosiysi, nutqining rivojlanishiga katta hissa qo'shadi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Aziz ota-onalar farzandimiz kelajagi uchun befarq bo'lmaylik!

#### **Fodalanilgan adabiyotlar**

1. Ayupova M. Logopediya. –Toshkent, 2009 .
2. Po'latova M., Shomaxmudova R., Nurmuxammedova Sh., Tulaganova R. Kompleks mashqlar metodikasi. –Toshkent, 2018.
3. Shamurodova Zarofat. Logopediya. Me'yoriy talaffuzga o'rgatish. –Toshkent, 2012.
4. Сатир В. Вы и Ваша семья (руководство по личностному росту. – М., 2000. -320 с.
5. Психология семейных отношений с основами семейного консультирования. /Под редакцией Е.Г. Силяевой. – М.: “Академия”, 2002.-196 с.
6. Шоумаров Г.Б. тахрири остида. Оила психологияси. -Т.: “Шарк”, 2000.– 272 б.
7. Шоумаров Г.Б., Шоумаров Ш.Б. Муҳаббат ва оила. – Тошкент: “Ибн Сино”, 1994. – 120 с.
8. Давлетшин М.Г., Шоумаров Ғ.Б. Замонавий ўзбек оиласи ва унинг психологик хусусиятлари //ўзбек оиласининг этнопсихологик муаммолари: Республика илмий-амалий анжумани маърузалари қисқача баёни. - Тошкент, 1993. - Б. 3-7.
9. Қодирова Д.М. Оилада вояга етмаган болаларнинг ижтимоий онгини тарбиялаш тизimini ривожлантириш. Психологияни ўқитишда замонавий инновацион ёндашув. Психологлар фаолиятини ташкил этишда илғор технологиялар. 2020 й 215-218

#### **FONETIK MASHQLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI**

**Dilsora Ergashova**

*BuxDU magistri*

***Anotatsiya.** Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida fonetik mashqlardan foydalanishning samaradorligi haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** dars, fonetik mashq, undalma, gap, gap bo'laklari, gapning uyushiq bo'laklari.*

***Аннотация.** В статье рассматривается эффективность использования фонетических упражнений у младших школьников.*

***Ключевые слова:** урок, фонетическое упражнение, мотивация, предложение, части речи, связанные части речи.*

***Annotation.** The article examines the effectiveness of the use of phonetic exercises in primary school children.*

***Key words:** lesson, phonetic exercise, motivation, sentence, parts of speech, connected parts of speech.*

Fonetik mashq tizimini ta'limga tatbiq etish o'qituvchining pedagogik mahoratiga, ta'lim jarayoni tashkillashtirishga, tanlangan dars tipi, uning bosqichlariga bog'liq. O'qituvchi ta'lim jarayoni xususiyatlarini, dars tipi, uning bosqichlarini aniq tasavvur etsa, ta'lim jarayoniga, dars tipi va uning bosqichlariga mos mashqlar tizimidan foydalana oladi.

“Undalma” mavzusida qilinadigan ishlarni uch blokka ajratish mumkin: undalmalar bo'yicha axborot to'plash (1); undalma yuzasidan to'plangan axborotlarga ishlov berish (2); undalma yuzasidan o'rganilgan bilimlarni tushuncha darajasiga ko'tarish va ularni nazorat qilish (3).

Yuqoridagi bloklarga ko'ra “Undalma” mavzusini quyidagicha rejalashtirish mumkin.

Dars yangi o'quv materialini o'rganish va mustahkamlash tipidagi mashg'ulot bo'lib, uning yadrosi yangi bilimlarni o'rganishga tayyorgarlik, ta'rif va qoidalarni o'rganish, o'rganilgan bilimlarni dastlabki mustahkamlashdan iborat.

Dars mavzusini e'lon qilish uchun ish quyidagicha boshlanadi: men bir nechta gap aytaman. Men aytgan gaplar (mening nutqim) kimga va nimalarga qaratilganini aytib berishga tayyorlaning.

Bolalar, ona tili darsiga tayyormisiz? Bu gap kimga qaratilgan? (bolalarga). Ona tili, sen mening ona tilimsan! Bu gapchi? (ona tiliga). Ey momaqaldiroq, yanada kuchliroq bo'kir! (Bu gap - momaqaldiroqqa). Men o'z nutqimni bolalarga (1-gap), ona tiliga (2-gap), momaqaldiroqqa (3-gap) qaratdim. Gapirayotgan paytda so'zlovchi nutqini o'ziga (masalan, Dangasa tur, uxlaganing bo'lar), o'zgalar (Odil, menga ko'maklash), turli narsalarga (maynajon, sayrasangchi) qaratadi. Yana bir misol: ertalab uyqudan uyg'ongach bobomiz, buvimiz, ota-onamizga nima deymiz? Assalomu-alaykum, bobojon (buvijon, otajon, onajon). Salomimiz kimlarga qaratiladi? (bobomiz va buvimizga, ota-

onalarimizga). Ona tilida soʻzlovchining nutqi qaratilgan soʻzlar “Undalma” termini bilan oʻrganiladi. Undalmalar vositasida kishi oʻziga, oʻzga shahslarga, turli narsalarga undaydi.

Suhbat asnosida bolalar yangi mavzuga oid termin -“Undalma” bilan tanishishadi, bolalarning nutqidagi undalmali sintaktik konstruksiyalar faollashadi, oʻquvchilar oʻzlari nutqida qoʻllanib kelayotgan hodisa-undalmaning mohiyatini anglashadi. Qisqacha aytganda, sinf jamoasi “Undalma” mavzusini oʻrganishga tayyor boʻlishadi. Endi darsning navbatdagi bosqichi-undalmaga oid bilimlarni oʻrganish boshlanadi.

Birinchi topshiriqqa qarang ... Namunada berilgan gapni oʻqing. Bu gapda soʻzlovchining nutqi nimaga qaratilgan? “Hayol”ga qaratilgan. Toʻgʻri, hayollarga chulgʻanib qolganimizda, oʻzimizga shunday gap bilan undaymiz. Undash yoʻli bilan biroz payt hayol surishdan toʻxtaymiz. Siz bajaradigan topshiriqda oltita nutq holati berilgan. Oltita gap tuzasiz. Nutqingizning kimlarga va nimalarga qaratilganini aniqlab, aytib berishga tayyorlaning. Topshiriqni bajara olsangiz, undalmaga oʻzingiz mustaqil taʼrif bera olasiz.

Oʻquvchilardan birortasi (yoki oltitasi) topshiriqni doskada bajaradi. Bolalarning koʻz oʻngida quyidagi yozuvlar paydo boʻladi.

Bolalar, bilim manbai kitobni seving.

Odamlar, choʻkayapman, qutqaringlar.

Hoy qanotli qushlarim, don yenglar.

Mehribon buvijon, Sizni tabriklayman.

Hoy yomgʻir, yana shiddat bilan yogʻ!

Ey shamol, salomimni doʻstimga yetkaz.

Doskadagi yozuvlar - oʻquvchilar ijod etgan gaplar asosida suhbat oʻtkazilib, undalmaning taʼrifi chiqariladi. Oʻqituvchi topshirigʻiga koʻra bolalar oʻzlari chiqargan xulosani darslikda berilgan taʼrifga taqqoslashadi. Bu taʼlim manbalari - nutq, darslikni oʻzaro uygʻunlashtirishga olib keladi. Endi undalmalarni nutqda ijro etish texnikasi, tinish belgilari, gapdagi oʻrni, sodda va murakkab undalmalarga oid bilimlarni oʻrganishga oʻtiladi. Buning uchun 2-topshiriq asosida mashq oʻtkaziladi. Bolalar berilgan gaplarda undalmalarning shahsga yoki narsaga qaratilganini hisobga olib, ularni ikki guruhga ajratishadi. Bu ish undalmalarni mustahkamlashga oid dastlabki oʻquv yumushidir. 2-topshiriq asosida undalmalar boʻyicha axborot toʻplash quyidagicha davom ettiriladi.

Doskadagi gaplar qayta kuzatilib sodda (bolalar, odamlar) va murakkab (mehribon buvijon, qanotli qushlar) undalmalarga oʻquvchilar diqqati tortiladi, tegishli qoidalar chiqariladi: a) undalma bir soʻzdan iborat boʻlsa–sodda undalma deyiladi; b) undalma ikki yoki undan ortiq soʻzdan iborat boʻlsa, murakkab undalma deyiladi.

Gaplar yana bir bor kuzatilib, undalmalarning oʻrni aniqlanadi. Buning uchun ayrim gaplar qayta tuziladi.

Bilim manbai kitobni seving, bolalar!

Sizni, mehribon buvijon, tabriklayman.

Xulosalar chiqariladi: undalmalar gapning boshida, oʻrtasida, oxirida keladi.

Undalmali gaplarda gap boʻlaklarini topish. Oʻquvchilar koʻpincha undalmani bosh boʻlak (ega) sanab, egani topa olishmaydi. Doskadagi gaplarga egalar kiritib yoziladi: Bolalar, siz bilim manbai kitobni seving. Boshqa gaplar boʻyicha ham ish - shu tahlitda davom ettirilib xulosa chiqariladi. Undalmalarni oʻqish texnikasi, tinish belgilarini ishlatish qoidalari tushuntiriladi. Bu ishlar natijasi oʻlaroq oʻquvchilar ongida undalma toʻgʻrisidagi tasavvurlarning umumiy qurilishi shakllanadi. Endi yangi taʼrif, qoidalarni mustahkamlashga oʻtiladi. Buni amalga oshirish uchun quyidagicha ish qilish mumkin.

a) darslikda berilgan taʼrif, qoida, aniqliklarni diqqat bilan oʻqib chiqish.

b) 3-topshiriq boʻyicha mashq oʻtkazish. Bolalar sheʼriy parchadan undalmali bandlarni (Nega tilkalaysan bagʻrimni, ohang, Nechun kerak, rubob, senga shuncha gʻam) ajratib yozishadi. Bu bandlarda shoirning nutqi nimalarga qaratilganligi, undalmalarning turi, gapdagi oʻrni, tinish belgilari va oʻqish texnikasi yana bir bor eslatiladi. Bolalar undalma boʻyicha toʻplagan axborotlarga moslashishadi, koʻnikishadi.

v) undalmaga oid bilimlarni esga tushirish davomi sifatida 4-topshiriq boʻyicha mashq qilinadi. Bolalar undalma boʻyicha toʻplagan axborotlarni yangi oʻquv sharoitiga - tayanch soʻzlarni undalma vazifasida qatnashtirib bogʻli nutq tuzish jarayoniga tatbiq etishadi.

Keltirilgan dars tavsifidan koʻrinadiki, uning qurilishi va borishi bolalar tafakkuriga moʻljallangan. Oʻquvchilar berilgan topshiriqlar asosida ijodiy mashq qilishib, mavzuni mustaqil oʻrganishadi, taʼrif, qoida, aniqliklarni shakllantirishadi. Bunday darslarni “ijodiy dars” deb ataymiz. Mavzu induktiv yoʻl bilan oʻzlashtirildi. Dalillarga koʻra quyidagi xulosalarga kelindi.

Dars yangi o'quv materialini o'rganish va mustahkamlash tipidagi mashg'ulot bo'lsa, uning quyidagi bosqichlarida fonetik mashqlar tizimidan foydalaniladi.

a) yangi mavzu bilan bolalarni tanishtirish jarayonida o'tkaziladigan mashq darsga kirish yasash, yangi termin va unga muvofiq tushuncha bilan tanishtirish funksiyalarini bajaradi;

b) yangi mavzuni o'rganishga tayyorgarlik maqsadida tashkil qilinadigan mashq dalillarni, o'quvchilar tajribasidan ko'p marta o'tgan omillarni faollashtirish vazifasini o'taydi. Ish shu yo'sinda tashkil etilganda, bolalarning jonli nutqi tilni-mavzuga oid ta'rif, qoida, aniqliklarni o'zlashtirish laboratoriyasiga aylanadi. Bola nutqi tildan oldinda harakat qilib "Nutqdan tilga qarab borish" tamoyilining amal qilishiga olib keladi;

d) yangi o'quv informatsiyalarini idrok etish jarayonida tashkil qilinadigan mashqlar yangi ta'rif, qoida, aniqliklarni o'rganish hodisalariga hamkorlik qilib, o'quvchilar tafakkurini, xotirasini kompleks faollashtirish vazifasini bajaradi. Chiqarilgan xulosa ijodiy faoliyat mahsulini, o'quvchining o'zi kashf etgan bilim sifatida ongda to'planadi;

e) yangi o'quv materialini tushuntirilgach yoki bolalarning o'zlari mustaqil o'rgangach, o'tkaziladigan mashq mustahkamlash vazifasini bajaradi. Shu yo'l bilan bolalar hozir o'rganilgan bilimlarni berilgan o'quv holatlariga tatbiq qilishadi. O'quv holatlari yangi, rang-barang bo'lsa, mustahkamlash ham ijodiy jarayonga aylanadi. Shunday qilib, dastlabki dars tipida axborotlarni to'plash va ularga dastlabki ishlov berish ketma-ket, bir-biri bilan uzviy bog'langan holda o'tkazilsa, mashq qilishning samaradorligi oshadi.

Undalmalar bo'yicha o'rganilgan bilimlarning umumiy qurilishi esga tushirilgach, topshiriqlar asosida mashq o'tkaziladi. O'quvchilar undalmaga oid bilimlarni tatbiq etib, mashq qilishadi. Ishni shu yo'sinda o'tkazish tushuncha darajasida o'zlashtirishga olib keladi. Tushuncha darajasida o'zlashtirish bilim, malaka, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlarning o'quvchi faoliyati tarkibiga aylanishiga sabab bo'ladi. Endi bilim o'quvchini emas, aksincha, o'quvchi bilimni boshqara boshlaydi, u o'qituvchi istagan matnlardan undalmalarni topa biladi, undalmalar ishtirokida nutq tuza oladi, undalmalarni boshqa fonetik mashqlar tizimi hodisalaridan farqlaydi. O'rganilgan bilimlar o'quvchilarning shaxsiy mulkiga aylanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev Y. Eski maktabda xat-savod o'rgatish. - Toshkent, 1960.
2. Abdullayeva Q. Birinchi sinfda nutq o'stirish. - Toshkent, "O'qituvchi", 1980.
3. Abdullayeva Q. Savod o'rgatish. - Toshkent, 1983.
4. Abdullayeva Q., Raxmonova S. Ona tili darslari (usuliy qo'llanma). - Toshkent, 1999.

### O'ZBEK TILIDA MEVA ETIMOLOGIYASIGA OID LUG'ATLAR

N.H. Hojiyeva  
BuxDU o'qituvchisi

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada o'zbek tili mevachilik leksikasiga tegishli ba'zi so'zlar xalq tili lug'at boyligining ajralmas qismi sifatida tahlil qilingan. Mevachilik leksikasining vujudga kelishi insoniyat o'tmishi bilan, insonning mehnat jarayoni o'zlashtirish tarixi bilan uzviy aloqadorligi, meva va uning turlari izohli lug'atlarda, qomuslarda shu mevaga berilgan ta'riflar, mazkur ta'riflarning lug'atlar izohi bilan taqqoslash asosida tayyorlangan.

**Kalit so'zlar:** mevachilik leksikasi, "Farangi Jahongiriy" lug'ati, "Nisob us-siyobon", mive, mivedjat, miyo, miye.

**Аннотация.** В данной статье некоторые слова, относящиеся к лексике узбекского языка, анализируются как составная часть лексики народного языка. Возникновение фруктовой лексики неразрывно связано с прошлым человечества, историей человеческого труда, определением фрукта и его видов в словарях, энциклопедиях, настоящими определениями подготовлено путем сравнения со словарными аннотациями.

**Ключевые слова:** фруктовый словарь, словарь фаранги джахонгирий, нисаб ус-сиёбон, миве, миведжат, мийво, мийве.

**Аннотация.** In this article, some words related to the Uzbek language lexicon are analyzed as an integral part of the vocabulary of the vernacular. The emergence of fruit lexicon is inextricably linked with the past of mankind, the history of human labor, the definition of fruit and its types in dictionaries, encyclopedias, these definitions. Prepared by comparison with dictionary annotations.

**Key words:** Fruit vocabulary, Farangi Jahongiriy dictionary, Nisab us-siyobon, mive, mivedjat, miyo, miye